MINTAQADA SANOAT KLASTERLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MODELLARI

Kadirov San'at Yuldashevich
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15041176

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish zarurligi, mavjud imkoniyatlari, modellari va modellaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость инновационного развития промышленных кластеров в регионе, существующие возможности, модели и приоритетные направления их использования.*

Abstract. *This article highlights the need for innovative development of industrial clusters in the region, existing opportunities, models and priority areas for using them.*

Kalit so'zlar. *Mintaqa, klaster, model, innovatsion rivojlanish, sanoat klasterlari, hamkorlik, texnologiya.*

Ключевые слова. *Регион, кластер, модель, инновационное развитие, промышленные кластеры, кооперация, технологии.*

Key words. *Region, cluster, model, innovative development, industrial clusters, cooperation, technology.*

Klaster yondashuvi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan umumiy daraja va muayyan sohalarda boshqarish uchun ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib hisoblanadi. Chunki, innovatsiya sohasida davlat hokimiyati organlari alohida o'rin tutadi. Ular innovatsiyalar va sanoat klasterlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Bu borada mintaqada innovatsion-sanoat klasterlari ishtirokchilari innovatsion va yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan innovatsion ishlanmalarda ishtirok etadilar. Ushbu mahsulotlar mintaqada o'sish uchun "katalizator" bo'lib xizmat qilib, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qiladi. Mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish uchun modellari zarur bo'ladi. Bu borada mintaqaviy klasterlar tarkibi tarmoqlararo aloqalarning rivojlanishi tufayli hududdagi iqtisodiy faoliyat turiga qaraganda samarali bo'lib qaraladi. Chunki, tashqi muhitning dinamik tabiati tufayli mintaqaviy innovatsiyalar va sanoat klasterlarini moslashuvchan davlat boshqaruvi modelini ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Klaster tarkibida moslashuvchan davlat boshqaruvi modeli klasterni rivojlantirishdagi noaniqlik sharoitida samarali ishlaydi. Mazkur model vositalar o'zgarishiga va jarayonning belgilangan maqsadlari algoritmiga asoslanadi. Ya'ni, mintaqaviy innovatsiyalar va sanoat klasterlarini moslashuvchan davlat boshqaruvi modelining joriy etilishi innovatsiyalarni rivojlantirish, mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, tarmoqlararo va mintaqalararo hamkorlikni kengaytirish hamda hududda yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirish uchun yetarli shart-sharoit yaratishga imkon beradi [1].

Mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish modellaridan foydalanish uchun sanoat klasterlarini adaptiv davlat boshqaruvi modelini joriy etish lozim. Bu orqali innovatsiyalarni rivojlantirish, hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, tarmoqlararo

va hududlararo hamkorlikni kengaytirish, hududda yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Tadqiqotlarda hududlarning innovatsion klasterlari va mintaqaning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Xususan, unga asosan, sanoat majmuasining innovatsion faoliyati tayyorgarliksiz amalga oshiriladi va sanoat majmuasining innovatsion faolligi ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilinadi. Hududiy sanoat majmuasini samarali innovatsion rivojlantirish uchun texnologik bazani modernizatsiya qilish zarur. Shularga asosan, innovatsion klasterlarga asoslangan hududiy sanoatni innovatsion rivojlantirish modeli taklif etiladi [2]. Mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirishni asosini klaster unsuri tashkil etib, ushbu unsur bevosita innovatsiya asosida samarali taraqqiy qilib borishi lozim. Ya’ni, klaster innovatsion faol bo‘lgan korxonalarning doimiy konsentratsiyalashib borishini anglatadi. Ya’ni, innovatsion faollik, firma va korxonalar faoliyatlarini innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilishini nazarda tutadi [3]. Klasterlar orqali mos mintaqaning iqtisodiy tuzilmasini taraqqiy qildirish uchun o‘zaro hamkorlikda mos innovatsion model yaratiladi. Jumladan, klaster faoliyati modelini yaratish integratsiyaga yondashuvlar, jumladan, iqtisodiy integratsiya vositalaridan foydalanishni takomillashtirish uchun yetarli asos yaratadi va mavjud imkoniyatlarni ochadi [4].

Asosiy masala bo‘lib innovatsion klasterlarni yaratish sifatida uning orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish rejalari belgilanadi. Unga asosan, mintaqa iqtisodiy hududini boshqarishning innovatsion klasterlarini shakllantirish asosida iqtisodiy rivojlanishni modellashtirishning uslubiy vositalari takomillashtiriladi. Buning uchun innovatsion klasterlarni shakllantirishning iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish va hududiy rivojlanishni prognozlash va rejalashtirishning uslubiy salohiyatini kengaytirish talab etiladi. Ya’ni, klasterda optimal hududiy joylashuvni aniqlash va sanoat ishlab chiqarishini uzoq muddatli rivojlantirish muammosi shartlarini belgilaydigan innovatsion klasterni shakllantirish jarayoniga e’tibor qaratiladi [5]. Shular orqali mintaqada klaster tashabbusini samarali amalga oshirish jarayonida yangi tarmoqlarning hududiy taqsimlanishini optimallashtirishga erishiladi. Bu bilan mavjud tarmoqlarni rivojlantirish muammolari ko‘rib chiqiladi hamda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishni matematik modellashtirishga yondashuvlar umumlashtiriladi. Mintaqani samarali boshqarish uchun innovatsion klasterini shakllantirishning iqtisodiy-matematik modeli tuziladi. Shunga asosan, innovatsion klaster asosida mintaqani iqtisodiy rivojlanishning optimallashtirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlar innovatsion siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bo‘ladi. Ya’ni, agrosanoat klasterlari qishloq xo‘jaligi sanoatida innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishning istiqbolli modeli bo‘lib xizmat qiladi [6]. Shunga asosan, hamkorlikdagi sa’y-harakatlar va umumiy resurslar orqali ushbu klasterlar zamonaviy texnologiyalar, tadqiqot yutuqlari va barqaror amaliyotni integratsiyalaydi. Ya’ni, klaster ishtirokchilari o‘rtasida miqyos va bilim almashish orqali mahsuldorlikni oshirish va bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay muhit yaratadi.

Darhaqiqat, mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish modellari xilma-xil bo‘lib, bu bo‘yicha turli yondashuvlar to‘plangan. Ular mintaqaning o‘ziga xos sharoitlari, resurslari va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Shulardan kelib chiqib, mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirishning quyidagi samarali modellari qo‘llaniladi:

1) An’anaviy klassik model. Ushbu model geografik jihatdan yaqin joylashgan, bir-biri bilan bog‘langan kompaniyalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlar (masalan, kasb-hunar ta’limi muassasalari va savdo uyushmalari) guruhiga asoslanadi. Klaster a’zolari o‘rtasida bilim almashinuvi, hamkorlik va

raqobatni rag‘batlantiradi. Bu esa innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning tezroq tarqalishiga imkon beradi.

2) Innovatsion ekosistema modeli. Ushbu model klaster modelining kengaytirilgan versiyasi bo‘lib, unda turli manfaatdor tomonlar (startaplar, venchur kapital egalari, davlat tashkilotlari, universitetlar va boshqalar) o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikka e’tibor qaratiladi. Yangi g‘oyalar va texnologiyalarni yaratish va tijoratlashtirish uchun qulay muhit yaratadi.

3) Texnologik parklar va innovatsion markazlar modeli. Ular yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan maxsus infratuzilma va xizmatlarni taqdim etadi. Ya’ni, bular startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun inkubatsiya, akseleratsiya va moliyalashtirish dasturlarini taklif etadi.

4) Raqamli model. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda geografik jihatdan tarqalgan kompaniyalar va tashkilotlarni birlashtiradi. Raqamli platformalar, katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

5) Barqaror rivojlanish modeli. Ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya va resurslarni tejashga yo‘naltiriladi. Barqaror yechimlarni ishlab chiqish va joriy etishni rag‘batlantiradi.

Yuqoridagi tahdillarimizdan kelib chiqib, mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagi ketma-ketlikka asoslangan modelni shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz (1-rasm):



1-rasm. Mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish modeli[1]

Mazkur 1-rasmga asosan, mazkur model tarkibida uning ishtirokchilari faol ishtirok qilishlari talab etiladi. Bu holatda mintaqada sanoat klasterlarini innovatsion rivojlantirish uchun davlat siyosati, infratuzilma, ta'lim va malaka, moliyalashtirish, hamkorlik hamda innovatsion madaniyat kabi unsurlarni ham hisobga olish lozim. Bu borada muvaffaqiyatli klaster rivojlanishi uchun doimiy monitoring, baholash va moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa shuki, mintaqada sanoat klasterlarini samarali innovatsion rivojlanishi uning mos modellari va asosiy yo‘nalishlariga bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun innovatsiyalarni modellashtirish maqsadida innovatsion hayot sikli turli bosqichlardan amalga oshirilishi kerak. Bu borada innovatsion loyihalar tuzilishi ko‘rib chiqiladi, innovatsion loyihalarni tanlash tartibi taklif etiladi hamda turli maqsadlar uchun texnik komplekslar va texnologik faoliyatni modellashtirish uchun tanlov sxemasi taqdim etiladi. Dastlab modellashtirishning nazariy jihatlari, so‘ngra esa uning amaliyoti ko‘rib chiqiladi. Shunga asosan, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratish zarur, deb hisoblaymiz. Buning uchun tanlanadigan mintaqaning sanoat korxonalari innovatsion rivojlantirish modeli yuqori texnologiyali klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati va sanoat biznesining sa'y-harakatlarini o‘ziga birlashtirishi kerak. Natijada, yangi mintaqaviy innovatsion tizim yaratiladi, optimal innovatsion faoliyatning klaster modelidan foydalaniladi va innovatsion infratuzilma yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mozaleva N., Kulkaev G., Ivanova M., Yakimchuk N. (2024). Model of Adaptive Public Management of Regional Innovation and Industrial Clusters. In: Devezas T.C., Berawi M.A., Barykin S.E., Kudryavtseva T. (eds) Understanding the Digital Transformation of Socio-Economic-Technological Systems. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 951. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-56677-6_32
2. Тюкавкин Н.М., Гоман К.И. Инновационная модель кластерного развития региона. // Вестник Самарского университета. Экономика и управление, 2020, 11(1). - с. 75-83.
3. Urdushev X., Eshonqulov S.H. Klasterlar va ularning ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish usullari bilan takomillashtirish. // “UzBridge” elektron jurnali, 2-son, oktabr, 2019. - 14 b.
4. Гозиев М.Ш., Хасанова Р.Р. Создание модели интеграции кластеров для реализации инновационных проектов. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), Feb., 2023. - с. 60.
5. Napolskikh D. & Yalyalieva T.V. (2019) "Modeling Of Regional Economic Development Based On Innovative Clusters. // Regional Science Inquiry, Hellenic Association of Regional Scientists, vol. 0(2). - pp. 73-81.
6. Белая Р., & Узганбаева Д. (2024). Agro industrial clusters as a form of innovative development in the industry. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1). – с. 578-579.

[1] Muallif ishlanmasi.